
Qo'shtepa tumanida sayyor sud majlisi o'tkazildi

Qo'shtepa tumanidagi 15-sonli bolalar musiqa va san'at maktabida sayyor sud majlisi o'tkazildi.

Sayyor sud majlisi davomida Qo'shtepa tumani IIB JXX Probatsiya guruhi hisobida turib jazo o'tayotgan, qilmishidan pushaymon bo'lib tayinlangan jazodan o'ziga to'g'ri xulosa chiqarib, mehnatga halol munosabatda yondoshib, tuzalish yo'liga o'tgan 8 nafar nazorat ostidagi shaxslar JKning 73-moddasiga asosan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilindi. Shuningdek, ATI jazosini o'tashdan qastdan bo'yin tovlab kelayotgan 2 nafar shaxsning jazo turi OMQ jazo turiga almashtirildi.









2024-11-07 10:33:24